



IJTIMOYIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI

ISSN 3060-5059



VOL.3 № 4

2026

XII–XIV ASRLARDA INGLIZ GEOLOGIK TERMINOLOGIYASIDA LOTINCHA O‘ZLASHMALAR

Turdikulova Barno Toirkulovna

Guliston davlat pedagogika instituti, dotsent (PhD)

Jangirov Lochinbek

Guliston davlat pedagogika instituti, talabasi

Annotatsiya

Mazkur maqolada XII–XIV asrlarda ingliz tilida geologik terminologiyaning shakllanishiga lotin tilining ta’siri tahlil qilinadi. Tadqiqotda, ayniqsa, geologik terminlarning rivojlanishida morfologik so‘z yasash jarayonlari-affiksatsiya, prefiksatsiya, qo‘shma so‘z yasash hamda qisqartma shakllarning o‘rniga alohida urg‘u berilgan.

Kalit so‘zlar: geologik terminologiya, o‘zlashmalar, so‘z yasalishi, affiksatsiya, prefiks va suffikslar, xalqaro terminologiya.

ЛАТИНСКИЕ ЗАИМСТВОВАНИЯ В ГЕОЛОГИЧЕСКОЙ ТЕРМИНОЛОГИИ АНГЛИЙСКОГО ЯЗЫКА В XII–XIV ВЕКАХ

Турдикулова Барно Тоиркуловна

Гулистанский государственный педагогический институт, доцент (PhD)

Джангиров Лочинбек

Гулистанский государственный педагогический институт, студент

Аннотация

В статье рассматривается влияние латинского языка на формирование геологической терминологии английского языка в XII–XIV веках. Исследование посвящено морфологическим способам словообразования, таким как аффиксация, префиксация, словосложение и аббревиация при образовании геологических терминов.

Ключевые слова: геологическая терминология, латинские заимствования, словообразование, аффиксация, префиксы и суффиксы, международная терминология.

LATIN BORROWINGS IN ENGLISH GEOLOGICAL TERMINOLOGY IN THE XIIth – XIVth CENTURIES

Turdikulova Barno Toirkulovna

Gulistan State Pedagogical Institute, Associate Professor (PhD)

Jangirov Lochinbek

Gulistan State Pedagogical Institute, Student

Abstract

This article examines the influence of the Latin language on the formation of geological terminology in English during the XII–XIV centuries. The study focuses on morphological word-formation processes, particularly affixation, prefixation, compounding, and abbreviation in the development of geological terms.

Keywords: geological terminology, borrowings, word formation, affixation, prefixes and suffixes, international terminology.

Har qanday tilda termin va leksemalarning yasash xususiyatlarini o‘rganish hamda ularni atroflicha tahlil qilish, ularning maxsus terminologik ma’noni ifodalovchi til birliklari sifatida shakllanish xususiyatlarini aniqlash muhim ahamiyatga ega. Shu ma’noda ta’kidlash lozimki, termin yasalishi so‘z yasalishiga nisbatan kengroq tushuncha sifatida talqin etiladi.

Chunki termin yasashda morfologik usul orqali nafaqat oddiy soʻz yasash vositalari, balki oʻziga xos til vositalari va muayyan elementlarning birikishi natijasida hosil boʻladigan soʻz birikmalari ham nazarda tutiladi. Maxsus sohaga oid barcha leksik birliklar va ular ifoda etadigan tushunchalar soha terminlarining oʻziga xos lingvistik xususiyatlarini aks ettiradi. Muayyan sohada faoliyat yuritayotgan mutaxassislarining ushbu terminologik birliklarning nozik maʼnolarini angʻlay olishi bugungi kunning dolzarb masalalaridan biriga aylanganini koʻrish mumkin.

Ingliz va oʻzbek tillarida termin yasalishi muayyan soha doirasida faoliyat yuritayotgan kishilar oʻrtasidagi kasbiy muloqot uchun muhim boʻlgan sohaviy terminlarning oʻziga xos xususiyati sifatida namoyon boʻladi. Geologik terminologiyaning xarakterli jihati shundaki, soha terminlarining yasalishi oʻz-oʻzidan amalga oshmaydi, balki mutaxassis yoki terminshunos olimlarning ongli va samarali mehnati mahsuli hisoblanadi. Geologiya sohasiga oid terminlarni yasashda affiksial, noaffiksial, qoʻshma soʻz yasash va abbrevatsiya (qisqartirish) usullari soʻzning morfemik tarkibini shakllantirishda ancha faol qoʻllaniladi. Shuning uchun ham ular morfologik usul bilan yasalgan terminlar toifasiga kiradi va maʼlum bir guruhda oʻzaro bogʻliqlikda tahlil qilinadi.

V. P. Danilenko terminologik birliklar tarkibiy tuzilishining oʻziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda, terminlarni tarkibiy tuzilishiga koʻra uch turga ajratadi: a) termin-soʻzlar; b) termin birikmalar; v) ramziy-soʻzlar. Tilshunos olimning ushbu nazariyasi geologiya sohasiga oid terminlarga ham aloqador ekanligi tadqiqot jarayonida oʻz isbotini topdi. Soʻz yoki termin yasash usullarining har biri geologiya sohasiga oid leksik birliklarning terminologik xususiyatlarini aks ettirishda muhim ahamiyat kasb etadi [1; 245–246-b.].

XII–XIV asrlarda ingliz tilining geologiya sohasi terminologiyasiga lotin tilidan koʻplab soʻzlar oʻzlashgan. Jumladan, -ion, -tion, -sion, -ation, -fication qoʻshimchalari bilan yasalgan ot turkumiga oid soʻzlar kirib kelgan. Masalan: *percolation* – filtratsiya, filtrlash; *eruption* – otilish, portlash; *plantation* – plantatsiya; *polarization* – polyarizatsiya; *radiation* – radiatsiya; *salinisation* – shoʻrlanish; *revivification* – jonlanish va boshqalar. Manbalarda keltirilishicha, ushbu soʻzlar XV–XVII asrlarda rus tili lugʻatiga, XVII–XIX asrlarda esa oʻzbek tili leksikasining geologiya sohasiga oid matnlariga kirib kelgan. Binobarin, muayyan sohaga qaratilgan leksikani oʻzlashma soʻzlarsiz tasavvur qilish qiyin. Chunki aksariyat kashf qilingan yoki qazib olingan minerallar aynan ularni aniqlagan olimlar nomi bilan ifodalanadi. Natijada soha terminologiyasida eponimlar vujudga keladi va boshqa til sohiblari ushbu tushunchalarni aynan shu shaklda qabul qilishga majbur boʻladi.

Tilshunos olim A. I. Smirnitkiy -ion, -tion, -sion, -ation, -fication kabi qoʻshimchalarni guruh qoʻshimchalari deb hisoblaydi. Chunki ular bir butun vazifani bajaradigan murakkab qoʻshimcha morfemalar birikmasidir. Qolaversa, bu qoʻshimchalar tarkibiga kiruvchi har bir morfema mustaqil qoʻllanishi ham mumkin. Ingliz tilida guruhlangan qoʻshimchalarning mavjudligi mazkur tilda soʻz oʻzlashtirish hodisasining faolligi, shuningdek, lotin tilida rivojlangan va ingliz soʻz yasash tizimiga koʻchgan ayrim tarkibiy munosabatlar bilan izohlanadi [3; 104–105-b.].

Oʻzbek tilida geologik terminlarning shakllanishida quyidagi qoʻshimchalarning sarmahsul ekanligi aniqlandi. Masalan, ot yasovchi qoʻshimchalar: **-lik** (*balandlik, chuqurlik, tepalik, qoyalik, tekislik, issiqlik, sovuqlik, namlik, quruqlik*); **-chi, -uvchi, -ovchi** (*burgʻulovchi, qazuvchi, oʻyuvchi, sinovchi, tabelchi*). Taʼkidlash joizki, geologik terminlarni affiksial morfemalar yordamida yasash uchun yangi morfemalarni yaratish emas, balki soʻz yasashning keng tarqalgan vositalari orasidan aynan shu sohada termin yasash uchun eng qulay va mos birliklarni tanlash hamda muayyan qoʻshimchalarga terminologik maʼno yuklash muhim ahamiyatga ega. Masalan, oʻzbek tilida mineral nomlari ham qoʻshimchalar yordamida paydo boʻlishi mumkin. Ular: *aykinit, sulfat, sulfid, aksinit* va boshqalar [2; 540–541-b.].

Tilshunoslikda soʻz yasashning prefiksial usuli ingliz tili uchun anʼanaviy hodisa hisoblanadi. Bunda ingliz tilidagi geologik terminlar oʻzagiga prefiks qoʻshish orqali hosil boʻladi.

Qiyoslanayotgan tillarda semantik guruhlar va ba'zan prefikslarning ma'nolaridagi o'zgarishlar ulardagi o'xshashlikni namoyon qiladi. Ikkala tilda ham so'z yasashining prefiksli usulida ikki tur yetakchilik qiladi: monoprefiks (terminda bitta prefiks mavjud) va biprefiks (terminda ikkita so'z yasovchi morfema mavjud). Ingliz tilidagi bunday morfemalarga quyidagi prefikslarni qo'llash maqsadga muvofiqdir. Masalan: **un-** (inkor ma'no anglatuvchi prefiks, o'zbek tilidagi *ma* inkor shakliga muqobil): *undeveloped* – rivojlanmagan; **mis-** (muayyan ish-harakatning noto'g'ri bajarilganligini bildiradi): *misaddress* – noto'g'ri murojaat; **up-** (“tepada bo'lish”, “yuqoriga ko'tarilish” ma'nosida fe'l va ot yasaydi): *upwelling* – yer sathi suvlarining yuzaga ko'tarilishi; **under-, over-** (biror narsa ostidagi yoki ustidagi holatni bildiradi): *underpopulation* – kamsonli aholi, *overspill* – me'yoridan ortiqcha aholi soni, *overpopulation* – aholining haddan tashqari ko'payishi va boshqalar [3; 104–105-b.].

Ingliz tilida so'z yasashidagi deyarli barcha prefikslarning lotin va yunon tillaridan olinganligiga alohida e'tibor qaratish lozim. Yangi geologik terminlarning shakllanishida prefikslar muhim o'rin tutadi, shu bilan birga, ularning aksariyati mustaqil so'zlar vazifasini ham bajaradi. Ushbu prefikslar barcha Yevropa tillariga kirib borgan bo'lib, nafaqat ingliz va o'zbek tillarida, balki boshqa xorijiy tillarda ham qo'llaniladi va odatda ilmiy terminlarni shakllantirishga xizmat qiladi. Ular ko'plab tillarning terminologik tizimlari o'rtasida o'ziga xos ko'priq vazifasini bajaradi va umumxalqaro terminologik fondni yaratish hamda boyitish uchun asos bo'ladi. Lingvistik adabiyotlarda ular xalqaro terminologik elementlar deb ham ataladi. Masalan, **inter-** prefiksi “orasida”, “o'zaro” ma'nolaridagi so'zlarni, asosan sifatlar va fe'llarni yasashda qo'llaniladi: *interethnic* – millatlararo, *international* – xalqaro. Bundan tashqari, **dis-** prefiksi o'zak ma'nosiga zid yoki inkor ma'noni beradi: *disafforest* – daraxtlarni kesib, o'rmonni yo'q qilmoq; *dislocation* – dislokatsiya; *displacement* – yashash joyini o'zgartirish. **Re-** prefiksi esa “qayta”, “takror” ma'nosida qo'llaniladi: *non-renewable resource* – qayta tiklanmaydigan resurslar; *reforestation* – o'rmonlarning qayta tiklanishi; *recycling* – qayta ishlash va boshqalar [4; 154–155-b.].

Mazkur ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, XII–XIV asrlarda ingliz tilida geologik terminologiyaning shakllanishi va rivojlanishida lotin tilining ta'siri muhim va hal qiluvchi omillardan biri bo'lgan. Xususan, lotin tilidan o'zlashgan affikslar (-ion, -tion, -sion, -ation, -fication) orqali yasalgan terminlar geologiya sohasida ilmiy tushunchalarni ifodalashda keng qo'llanilgan va terminologik tizimning boyishiga xizmat qilgan. Shuningdek, aniqlanishicha, geologik terminlarning shakllanishida morfologik so'z yasash usullari – affiksatsiya, prefiksatsiya, qo'shma so'z yasash va qisqartmalar yetakchi o'rin egallaydi. Ayniqsa, lotin va yunon tillaridan kirib kelgan prefikslar xalqaro terminologik birliklar sifatida nafaqat ingliz tilida, balki boshqa tillarda ham umumiy ilmiy leksikaning shakllanishiga asos bo'lib xizmat qilgan. Bundan tashqari, geologik terminologiya tizimining rivojlanishi turli tillar o'rtasidagi o'zaro ta'sir va integratsiya jarayonlari bilan chambarchas bog'liq ekanligi isbotlandi. O'zlashma terminlar orqali ilmiy bilimlarning uzatilishi, eponimlarning shakllanishi hamda xalqaro terminologik fondning boyishi ta'minlangan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Danilenko V. P. Rus terminologiyasi: lingvistik tavsif tajribasi. — Moskva: Nauka, 1977. — 245 b.
2. Timofeyev P. P., Alekseyev M. N., Sofiano T. A. Inglizcha-ruscha geologik lug'at: taxminan 52 000 termin / tahrir ostida P. P. Timofeyev va M. N. Alekseyev. — Moskva: Rus tili, 1988. — 540 b.
3. Smirnitkiy A. L. Ingliz tili leksikologiyasi. — Moskva: M.V. Lomonosov nomidagi MDU Filologiya fakulteti, 1998. — B. 105.
4. Isaxodjayev B. A., Umarxodjayev M. U., Adilov A. A., Pirnazarov M. M., Alimov A. M. Geologiya atamalarining ruscha-o'zbekcha izohli lug'ati. — Toshkent: MRI, 2007. — 154 b.
5. Arakin V. D. Ingliz va rus tillarining qiyosiy tipologiyasi. — Moskva, 1972. — 370 b.